

QON- BU HAYOT.

Nishonova Sayyora Toyrjonovna

*Respublika Shoshilinch Tez Tibbiy Yordam Ilmiy markazi
Farg'ona filiali Qon quyish bo'limi hamshirasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qonning inson organizmidagi muhim biologik va fiziologik ahamiyati, uning asosiy vazifalari hamda sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, qon donorligining jamiyat hayotidagi ahamiyati va inson salomatligini saqlashdagi roli tahlil qilinadi. Qon hayot manbai ekanligi ilmiy va amaliy misollar asosida asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Qon, hayot, donorlik, gematologiya, ABO tizim, rezus omil, sog'liq, inson organizmi, termoregulatsiya.*

KIRISH

Inson hayoti va sog'lig'ini qon tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qon organizmning barcha to'qima va a'zolarini kislorod va oziq moddalar bilan ta'minlaydi, moddalar almashinuvini tartibga soladi hamda immun himoyani amalga oshiradi. Shu bois 'Qon — bu hayot' degan ibora bejizga aytilmagan.

Asosiy qisim.

Qon guruhi eritrositlar yuzasida joylashgan antigenlar va plazmadagi antitanachalar asosida aniqlanadi. Eng tarqalgan tizim bu ABO tizimdir. Ushbu tizim bo'yicha inson qoni 4ta guruhga bo'linadi. O(I), A(II), B(III) AB(IV).

O(I) qon guruhi- eritrositlarda A va B antigenlar yo'q, lekin plazmada ikkala antigenga qarshi antitanachalar bor.

A(II) qon guruhi-eritrositlarda A antigeni bor, plazmada esa B antigenga qarshi antinacha bor.

B(III) qon guruhi-eritrositlarda B antigeni bor, plazmada esa A antigeniga qarshi antitana bor.

AB(IV) qon guruhi eritrositlarda A va B antigenlar bor, plazmada antitanachalar yo'q.

Rezus omil ahamiyati.

Qon guruhi bilan bir qatorda inson qon guruhida rezus omil muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kasalliklar tufayli bemorga qon quyish zarurati paydo bo'lganda rezus omilini bilmay turib qon quyish qat'iyon taqiqlanadi. Tabiatda 85% insonlar musbat, 15% odamlar manfiy qon guruhiga mansubdirlar. Rezus omil eritrositlarda mahsus oqsil mavjudligi bilan harakterlanadi. Rh(+), Resuz musbat, rh, (-) resuz manfiy. Bularni mos kelmasigi hozirgi kunda nikohdan o'tayotga vaqtda hattoki homiladorlikda kuzatiladigag' salbiy holatlar, yoki tug'ruqda qon ketish holatlar va tug'ma qon kasalliklari bilan farzand dunyoga kelishi mumkinligini hisobga olib yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida tibbiy madaniyatlari oshirilmogda va ba'zi holatlarda tomonlar

kelib chiqadigan muammolarni hisobga olib nikohdan o'tishga bergan arizalari bekor qilinmoqda.

Qonning vazifasi.

Qon suyuq biriktiruvchi to'qima bo'lib, plazma va shaklli elementlardan tashkil topgan. Uning asosiy vazifalariga

-transport,

-himoya,

-regulyator

-termoregulyatsiya kiradi.

Qon orqali kislorod, gormonlar, fermentlar va boshqa biologik faol moddalar tashiladi.

Qon donorligi.

Qon donorligi esa tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, jarrohlik amaliyotlari, og'ir jarohatlar, favqulotda holatda kuyganlar, tug'ruq jarayonlari va turli kasalliklarda bemorlar hayotini saqlab qolishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Donorlik madaniyatini rivojlantirish jamiyat salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Respublikamizda 14-iyun "Donorlar kuni" sifatida muhim kun bo'lib, mahsus markazlarda faoliyat yurituvchi hodimlar va ixtiyoriy donorlar tomonidan ko'tarinki ruhda "Qon-bu hayot" shiori ostida tashkillanadi. Bu beg'araz donorlikni targ'ib qilish orqali ko'plab insonlar hayoti saqlanib qolinmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qon inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning ahamiyati nafaqat biologik, balki ijtimoiy jihatdan ham beqiyosdir.

Qon donorligini targ'ib qilish va aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Zero, insonlar salomatligi jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guyton A.C., Hall J.E. Tibbiy fiziologiya asoslari. — Toshkent, 2018.
2. Abbasov B.B. Inson fiziologiyasi. — Toshkent: Fan, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi materiallari.
4. WHO. Blood safety and availability. — Geneva, 2022.